

...tomonidan yozilgan: Edward Hughes

...tomonidan ilustrasiya qilingan:
M. Maillot

...tomonidan o'zgartirishlar kiritilgan:
E. Frischbutter; Sarah S.

...tomonidan ishlab chiqarilgan: Bible for Children
www.M1914.org

©2012 Bible for Children, Inc.

Lisenziya: Bu hikoyani chop etishingiz yoki nusha ko'chirishingiz mumkin.
Lekin u sotilmaydi.



Qadim zamonlarda Hudo Farishta
Jabroilni bir yahudiylik bokira
qizga yuborib shunday dedi:
"Sen o'qil tug'asan va Uning
ismini Iso qo'yasan. U Oliy
Hudovandning O'g'li bo'ladi
va abadiy
hukmronlik
qiladi" - dedi.



“Bu qanday bo’ladi ahir, men er ko’rmagan bo’lsam” deb so’radi Maryam. Farishta: “bu chaqaloq Hudodan keladi” deb aytdi. Va uning otasi hech qaysi erkak bo’lmasligini ham takidhladi.



Farishta Maryamga
uning qarindoshi
Elizabet ham
homilador ekanini
aytdi. Bu mo'jiza
edi. Tez orada
Maryam Elizabetni
ko'rishga bordi.



Maryam Yusufga
unashtirlgan edi.
Lekin Yusuf
Maryamning
homiladorligini
bilib juda
hafa bo'ldi.



Lekin farishta Yusugning
tushida ko'rinib unga bu
bola Hudodan ekanligini aytdi.
Shundan keyin Yusuf Maryamga
Isoga g'amho'rlik qilishga
yordam berdi.



Yusuf Hudoga ishonib itoat qildi. U shuningdek davlatga soliq berar edi.



Maryam o'zining
bolasini tug'ishga
tayor edi lekin
Yusuf hech qayerda
joy topolmadi.
Hamma joy
band edi.



U nihoyat bir othonani topdi va Iso othonada
tug'ildi. Uning onasi Isoni yo'rgaklab ohurga qo'ydi.

Hayvonlar bu ohurdan
oziqlanishardi.



O'sha yaqin joyda cho'ponlar qo'ylarini boqib yurishardi. Hudoning farishtasi ularga paydo bo'lib buyuk hushhabarni elon qildi.



“Bugun Dovudlar shahrida sizlar uchun Haloskor tug'ildi. U Rabbimiz Masihdir. Sizlar Uni ohurda yo'rgaklangan topasizlar.”



To'satda yana bir talay farishtalar
paydo bo'lib Hudoni olqishladilar.



Ular: "Samodagi Hudoga Hurmatu Izzat, yerdagi bandalarga tinchligu marhamat" deb sano aytishar edi.



Cho'ponlar yugurib othonaga borishar edilar. Bolani ko'rishgandan keyin ular farishtaning Iso haqidagi aytganlarini hammaga elon qilishdi.



Oradan 40 kun o'tgandan
keyin Yusuf bilan Maryam Isoni
Quddusdagi ma'badga
keltirdilar. U yerda
Shimo'n nomli bir
odam va keksa bir
ayol Anna
bola uchun
Hudoga
sano
aytishardi.




Ularning ikkovi ham Iso
Hudoning O'g'li ekanligini
bilishardi. Yusuf ikkita
parrandani olib
Hudoga qurbonlik
keltirdi bu
Hudovand
Qonuniga
ko'ra
qurbonlik
edi.



Bir necha
vaqt o'tgandan
keyin Sharqda
ko'rgan yulduz
munajimlarga
yo'l

ko'rsatib bordi va
ular kelib "Yahudiylarning
Podshohi bo'lib tug'ilgan bola
qayerda? Biz Unga ta'zim
qilgani keldik" dedilar.





Podshoh Hirod buni
eshitgach u bilan butun
Quddus bezovtalanib
ketdi. Shunda podshoh
ulardan Masihning
qayerda tug'ilishi
kerakligini so'radi "Boring
chaqaloqni toping men ham
Unga ta'zim qilmoqchiman"
dedi. Lekin u o'z
ko'nglida
chaqaloqni
o'ldirishni
niyat
qildi.



Yulduz munajimlarni chaqaloq
yotgan joyga keltirdi, ular
chaqaloqni topganlaridan
so'ng unga ta'zim qilib so'ng
hazinalarini ochib Unga
hushbo'y tutatqilar va
mo'miyo tortiq
qildilar.



Hirodga qaytmaslik
haqida tushlarida
ogohlantirilgandan so'ng
boshqa yo'l bilan o'z
yurtlariga qaytib
keldilar.




Shunda Hirod Hudoning
O'g'li Isoga zarar yetkaza
olmadi. Farishta Yusufni
tushida ogohlantirgandan
keyin, Yusuf Maryamni va
chaqaloqni olib
Misrga qarab
qochibketdi.





Hirodning o'limidan keyin Yusuf Maryam bilan chaqaloq Isoni olib Isroilga qarab yo'l oldi. U yurtning Nosira degan shahrida joylasdi.



Isoning tug'ilishi

Hikoya Hudo Kalomi Injildan olingan

...dan topilgan

Matto 1-2, Luke 1-2

"Kaloming ochilib qolganda ziyo ochar."

Zabur 119:130



Hikoya tugadi



Bu Kalomdagi Hikoya bizlarga, Hudoning bizlarni ajoyib qilib yaratganligi haqida va biz Uni tanib bilishimiz qanchalik muhim ekanligi haqida hikoya qilib beradi.

Hudo, biz ko'p yomonliklar qilganimizni biladi va U bu Yomonliklarni gunoh deb atadi. Gunohning evazi o'lim lekin Hudo olamni shunchalik sevdiki O'zining Yagona O'g'lini berdi, va U bizning gunohlarimiz uchun hochda o'ldi. U tirilib yana Osmonga ko'tarildi. Unga ishongan kishi halok bo'lmaydi balki abadiy hayotga ega bo'ladi. Agar siz Isoga ishonsangiz, Undan gunohlaringiz uchun kechirim so'rang, U gunoharingizni kechiradi. U sizning yuragingizga kelib yashaydi va siz U bilan abadiy yashaysiz.

Agar siz bu so'zlar haqiqatligiga ishonsangiz, Hudoga shunday deb ayting:
Qadrli Iso, Men Sening Hudoliginga ishonaman, Sen yer yuziga kelib mening gunohlarim uchun o'lding, va Sen yana hozir tiriksan va bir kuni men sen bilan abadiy bo'laman. Men hozir yangi hayot bilan yashayman, iltimos mening hayotimga kel, men Senga itoat qilishim uchun va Sening frazanding bo'lishim uchun yordam ber.

Muqaddas Kalomni o'qib Hudo bilan har kuni suhbatlashing!
Yuhanno 3:16

